

TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BORASIDAGI ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

Mualliflar: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Muxitova Kamola Erjon qizi

*“Toshkent Menedjment va Iqtisodiyot instituti” nodavlat ta’lim muassasasi Iqtisodiyot
kafedrasi Assistenti*

Matchanova Ma’rifat Ikramovna

Matchanov Tohirjon Matchanovich

Annotatsiya: *Mazkur maqola tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish mamlakat bank tizimining barqarorligini ta’minlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Maqolada BNP Paribas, Deutsche Bank va Halyk Bank kabi yirik xorijiy banklar misolida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish borasidagi tajribalar tahlil qilingan va uning amaliy ahamiyati ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, raqobatbardoshlik, regulyativ kapital, brutto aktiv, aktivlarning rentabelligi, sof foizli marja.*

Annotation: *Enhancing the competitiveness of commercial banks is a necessary condition for ensuring the stability of the country's banking system. The article analyzes the experiences of major foreign banks such as BNP Paribas, Deutsche Bank, and Halyk Bank in enhancing the competitiveness of commercial banks and discusses the practical relevance of these experiences.*

Keywords: *commercial bank, competitiveness, regulatory capital, gross assets, return on assets, net interest margin.*

KIRISH

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning tajribasini o‘rganish va O‘zbekiston bank amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini baholash muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu islohotlar banklar faoliyatining samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish, mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish uchun raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan xizmatlar va zamonaviy boshqaruv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston bank tizimida ham shunday ilg‘or tajribalarni joriy etish orqali banklar faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqaro standartlarga moslashish va mamlakat iqtisodiyotiga yanada samarali xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari kengayadi. Xususan, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha bir qator muhim vazifalar belgilangan. Ularga banklarning davlat resurslariga qaramligini kamaytirish, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish, samarali infratuzilmani yaratish va faoliyatni avtomatlashtirish, kredit portfeli hamda tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash,

korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda xalqaro amaliy tajribaga ega menejerlarni jalb qilish kiradi. Ushbu vazifalar tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish borasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va uni O'zbekiston bank amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini baholash zaruratini yuzaga keltiradi. V. Usoskinning fikricha, moliya tizimining liberallashtirilishi natijasida nobank moliya institutlari an'anaviy bank xizmatlariga kirib kelgani banklarning moliya bozoridagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa tijorat banklari uchun raqobatni kuchaytirmoqda. B. Berdiyarov esa tijorat banklarining likvidligini ta'minlash uchun zaxiralar va investitsiyalar balansini muvozanatda ushlab turish zarurligini ta'kidlaydi.

Bu xulosa O'zbekistondagi Asakabank, Turonbank va Aloqabank faoliyatiga asoslangan bo'lib, yuqori likvidli aktivlar va depozitlar etariligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. O. Abdurahmonov va A. Mirsoatov o'rta muddatda O'zbekiston bank sektorining rivojlanishi uchun asosiy strategik vazifalarni – moliyaviy barqarorlikni oshirish, ichki bozorni kengaytirish va xalqaro moliya bozorlarida faol ishtirok etishni belgilaydi. Hozirda respublikamiz banklari xalqaro fond birjalarida ro'yxatdan o'tmagan. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish uchun davlat kafolatlari, risklarni boshqarish, biznes-modellarni murakkablashtirish, geografik diversifikatsiya, raqobat sharoitini yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikka alohida e'tibor qaratish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

V. Usoskinning fikricha, moliya tizimining liberallashtirilishi natijasida nobank moliya institutlari an'anaviy bank xizmatlariga kirib kelgani banklarning moliya bozoridagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa tijorat banklari uchun raqobatni kuchaytirmoqda. B. Berdiyarov esa tijorat banklarining likvidligini ta'minlash uchun zaxiralar va investitsiyalar balansini muvozanatda ushlab turish zarurligini ta'kidlaydi. Bu xulosa O'zbekistondagi Asakabank, Turonbank va Aloqabank faoliyatiga asoslangan bo'lib, yuqori likvidli aktivlar va depozitlar etariligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. O. Abdurahmonov va A. Mirsoatov o'rta muddatda O'zbekiston bank sektorining rivojlanishi uchun asosiy strategik vazifalarni – moliyaviy barqarorlikni oshirish, ichki bozorni kengaytirish va xalqaro moliya bozorlarida faol ishtirok etishni belgilaydi. Hozirda respublikamiz banklari xalqaro fond birjalarida ro'yxatdan o'tmagan. Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish uchun davlat kafolatlari, risklarni boshqarish, biznes-modellarni murakkablashtirish, geografik diversifikatsiya, raqobat sharoitini yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikka alohida e'tibor qaratish zarur. J. Sinkining fikriga ko'ra, tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillar – bank xizmatlarining narxi, xizmatlarning mijozlar uchun qulayligi hamda bankning obro'sidir. U, shuningdek, banklarga hukumat tomonidan beriladigan kafolatlarning jamiyatda ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynashini, biroq haddan ziyod kafolatlar bozor qonunlariga zid ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidlaydi. A. Berger, S. Choul, O. Guedhami va R. Roman tadqiqotlarida davlat tomonidan banklarning moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi yuqori risklarni qabul qilishga olib kelishi mumkinligi qayd etilgan. Bu O'zbekistonda davlat banklarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi va yuqori kredit

risklarini qabul qilishi holatiga mos keladi. Masalan, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublika bo'yicha muammoli kreditlarning ulushi 4,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, Biznesni rivojlantirish bankida bu ko'rsatkich 8,5 foizga teng bo'lgan. G'arb olimlari tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, murakkab affillangan kompaniyalar tarmog'iga ega tijorat banklari iqtisodiyotda rentabellikni oshirishda samaraliroqdir. Bunday murakkab biznes-modellar aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy risklarni kamaytirishga yordam beradi, biroq yuqori operatsion xarajatlarni yuzaga keltiradi. A. Chernobay va boshqalar murakkab biznes-modellar operatsion risklarni boshqarishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. R. Korrea va L. Goldbergning tadqiqotlariga ko'ra, tijorat banklarining geografik diversifikatsiyasi bozor riskini kamaytiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi. Bu O'zbekistondagi banklarning xorijiy filiallari deyarli mavjud emasligi sababli ayniqsa muhimdir; hozirda faqat Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining Rossiyada bitta sho'ba banki faoliyat yuritmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish uchun davlat kafolatlari, risklarni boshqarish, biznes-modellarni murakkablashtirish, geografik diversifikatsiya, raqobat sharoitini yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikka alohida e'tibor qaratish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ilmiy maqolani yozishda tadqiqot olib borishning induksiya va deduksiya, statistik guruhlash, ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning axborot bazasi bo'lib, transmilliy banklarning yillik hisobotlari, Bazel qo'mitasining va Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining metodik ishlanmalari hamda iqtisodchi olimlar va xalqaro ekspertlarning empirik tadqiqotlarining natijalari hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish metodologiyasini takomillashtirishda Bazel qo'mitasining yangi bank nazorati talablari (Bazel-III) amaliyotga to'liq joriy etilishi muhim va o'rganishga arzigulik tajriba hisoblanadi. E'tiborlisi, 2008 yilning to'rtinchi choragida boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi tijorat banklari kapitalining etarliligi bo'yicha avvalgi Bazel talablari etarli emasligini ko'rsatdi. Shu sababli, Bazel-III standartida kapitalning prudensial talablari kuchaytirildi.

Bazel-III standartining asosiy talabi—regulyativ kapitalni qo'shimcha zaxiralar hisobiga 13 foizga etkazish orqali tijorat banklarining barqarorligini oshirishdir. Buning uchun ilgari bank amaliyotida mavjud bo'lmagan kapitalning himoyaviy konservatsiya va kontrsiklik buferlari (tijorat banklari uchun qo'shimcha kapital zaxiralari) joriy etildi. Natijada, birinchi darajali kapital hajmi oshdi, kapitalning bruto aktivlarga nisbati yaxshilandi. Bu esa tijorat banklarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

1-jadval


Fransiyaning BNP Paribas bankida regulyativ kapitalning miqdori va brutto aktivlarga nisbatan darajasi

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Regulyativ kapitalning miqdori, mln. evro	105726	111845	117349	122507	126555	128 867	134 141
Regulyativ kapitalning brutto aktivlarga nisbatan darajasi, %	5,2	5,2	4,7	4,7	4,7	4,9	4,8

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan aniq ko'rinadiki, BNP Paribas bankida regulyativ kapitalning miqdori 2018-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek, regulyativ kapitalning miqdori 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada ko'paygan. Bu esa, BNP Paribas bankining raqobatbardoshlik darajasini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. BNP Paribas bankida regulyativ kapitalning brutto aktivlarga nisbatan darajasi 2018-2024-yillarda 4,7 foizdan past bo'lmagan barqaror darajada bo'lgan. E'tirof etish joizki, tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, sof foizli marja ko'rsatkichi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun sof foizli daromad summasi (foizli daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farq summasi) brutto aktivlar summasiga bo'linadi va olingan natija 100 foizga ko'paytiriladi. Ushbu ko'rsatkichning xalqaro bank amaliyotida umume'tirof etilgan me'yoriy darajasi 4,5 foizni tashkil etadi. Tahlillar ko'rsatdiki,

Deutsche Bankda sof foizli marjaning darajasi 2017-2019-yillarda oshish tendensiyasiga ega bo'lgan, 2019-2021 yillarda esa, pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Biroq, sof foizli marjaning darajasi 2023-yilda 2017-yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Bu esa, mazkur davrda sof foizli daromadning o'sish sur'atini brutto aktivlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi. Tahlillar ko'rsatdiki, BNP Paribas bankida sof foizli marjaning darajasi 2017-2021-yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan hamda 2023-yilda 2017-yilga nisbatan 0,4 foizli punkt kamayish kuzatilgan. Bu esa, bankning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Tijorat

banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan yana biri – bu sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi ko'rsatkichidir.



1-rasm. Halyk Bankda (Qozog‘iston) sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi, foizda.

1-rasm ma’lumotlari aniq ko‘rsatadiki, Halyk Bankda sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi 2017-2023-yillarda ushbu ko‘rsatkichning umume’tirof etilgan me’yoriy darajasidan (2,0 %) sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Buning ustiga, Halyk Bankda sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasi 2023-yilda 2017-yilga nisbatan 2,3 foizli punktga o‘sgan. Bu esa, Halyk Bankning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. E’tirof etish joizki, tijorat banklarining raqobatbardoshligini tavsiflovchi muhim mezonlardan biri bo‘lib, ularning likvidlilik

darajasi hisoblanadi. O‘z navbatida, tijorat banklarining likvidlilikini ta’minlashda yuqori likvidli aktivlarning brutto aktivlarga nisbati muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Tijorat banklarida birlamchi zaxiralar tarkibiga kassadagi naqd pullar, tijorat banklarining Markaziy bankidagi milliy valyutadagi “Nostro” vakillik hisobraqamidagi pullar, boshqa banklarda ochilgan “Nostro” vakillik hisobraqamlaridagi pullar va inkassatsiya jarayonidagi pul mablag‘lari kiradi. Ikkilamchi zaxiralar tarkibiga esa, tijorat banki tomonidan sotib olingan qimmatli qog‘ozlar kiradi.

2-jadval

Bank birlamchi zaxiralari hamda Hukumat va Bundesbankning (Markaziy bank) qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalari miqdorining o'zgarishi (mlrd. evro)

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Birlamchi zaxiralar	197	147	175	199	186	184	147
Hukumat va Bundesbankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar	8	13	9	8	11	14	40

2-jadvaldan yaqqol ko'rinadiki, Deutsche Bank birlamchi zaxiralarning miqdori 2022-2024-yillarda kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, birlamchi zaxiralarning miqdori 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada (21,4 foiz) kamaygan. Ushbu kamayish mazkur davrda Hukumat va Bundesbankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar miqdorini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi. Deutsche Bank tomonidan Hukumat va Bundesbankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar miqdori 2021-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, ushbu investitsiyalarning miqdori 2024-yilda 2018-nisbatan yuqori sur'atda oshgan. Bu esa, bankning likvidligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik: hukumat tomonidan banklarga beriladigan kafolatlar jamiyatda banklarga va bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, biroq, hukumat tomonidan banklarga haddan ziyod ko'p kafolatlar berilishi (har qanday qarzni 100 foizli sug'urtalash) bozor qonunlari talablarini inkor qilinishiga olib kelishi mumkin; affillangan kompaniyalar faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi aktivlarni diversifikatsiya darajasini oshirish yo'li bilan moliyaviy risklarni kamaytirish orqali ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytirish imkonini beradi; an'anaviy bank xizmatlari ko'rsatishni bank bo'lmagan moliya muassasalariga va real sektorga mansub bo'lgan ayrim kompaniyalarga ruxsat berilganligi moliyaviy xizmatlar bozorida banklarga nisbatan kuchli raqobatni yuzaga keltirmoqda; BNP Paribas bankida regulativ kapitalning miqdorini 2018-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi, regulativ kapitalning miqdorini 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada ko'payganligi va regulativ kapitalning brutto aktivlarga nisbatan darajasini 2018-2024-yillarda 4,7 foizdan past bo'lmagan barqaror darajada bo'lganligi BNP Paribas bankining raqobatbardoshlik darajasini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi; Qozog'istonning Halyk Bankida sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan darajasini 2017-2023-yillarda ushbu ko'rsatkichning umume'tirof etilgan me'yoriy darajasidan (2,0 foiz) yuqori bo'lganligi va sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatini 2023-yilda 2017-yilga nisbatan yuqori sur'atda (2,3 foizli punkt) o'sganligi Halyk Bankning raqobatbardoshligini oshirish nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi; Deutsche Bank birlamchi zaxiralari 2022-2024-yillarda kamayish

tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, birlamchi zaxiralarning miqdori 2024-yilda 2018-yilga nisbatan sezilarli darajada kamayganligi mazkur davrda Hukumat va Bundesbankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar miqdorini sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi; Deutsche Bank tomonidan Hukumat va Bundesbankning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar miqdorini 2021-2024-yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi va ushbu investitsiyalar miqdorining 2024-yilda 2018-yilga nisbatan yuqori sur'atda oshganligi bankning likvidligini ta'minlash nuqtai-nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Fikrimizcha, tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish borasidagi ilg'or xorij tajribasining O'zbekiston bank amaliyoti uchun amaliy ahamiyatga molik bo'lgan jihatlari quyidagilardan iborat: xorijiy banklarning brutto aktivlarning rentabelligini ta'minlash, sof foydaning aktivlarning riskka tortilgan summasiga nisbatan me'yoriy darajasiga erishish va sof foizli marjaning barqarorligini va depozit bazaning etarliligini ta'minlash borasidagi tajribasi respublikamizning bank amaliyotida qo'llash maqsadga muvofiq; xorijiy banklarda sof foydaning o'sish sur'ati bilan brutto aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash, shuningdek, joriy likvidlikni yuqori likvidli qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar orqali qo'llab-quvvatlash amaliyoti O'zbekiston tijorat banklari uchun muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni//QHMMB:06/205992/0581-son. 13.05.2020 y.
2. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – С.48.
3. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Алпина Паблишер, 2017. – С.47.
4. Berger A. N., Ghoul S., Guedhami O. and Roman R. A. Internationalization and Bank Risk. *Management Science*, 2017. - No 63 (7). – R. 2283–2301.
5. Tijorat banklarining muammoli kreditlari. 2025-yil 1-yanvar holatiga ma'lumot www.cbu.uz(O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki).
6. Cetorelli, N. and Goldberg L. Measures of Global Bank Complexity. *Federal Reserve Bank of New York Economic Policy Review*, 2014. – No20 (2). – pp. 107–126.
7. Chernobai A., Ozdagli A. and Wang J. Business Complexity and Risk Management: Evidence from Operational Risk Events in U.S. Bank Holding Companies. *Journal of Monetary Economics*, 2020. – Article in press. doi: 10.1016/j.jmoneco.2020.02.004.
8. Correa R. and Goldberg L. S. Bank Complexity, Governance, and Risk. *NBER Working Papers*, 2020. – N 27547. – 43 r.
9. Corporate finance and financial strategy: optimising corporate and shareholder value / Tony Davies and Ian Crawford.p.
10. Korporativ moliya strategiyasi: Darslik/ S.Elmirzayev,H.Ahmedov // Toshkent/ "Iqtisod-Moliya" 2019 yil, 192-bet.

11. Toshmurodova B.E., Elmirzayev S.E: Korporativ soliq menejmenti Toshkent/ “Mumtoz so’z”. 104-bet.
12. Karlibayeva, sh. Masharipova, d. Ergashev, n. Allamberganova: Korporatsiyalar moliyasi. Darslik. Iqtisodiyot: 2019 yil.
13. Elmirzayev S.E: Korporativ moliya. . Darslik. 2019 yil. 364-bet
14. Namoz o'g'li, N. N. (2023). ISLAMIC BANKING: PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTIVES. World Economics and Finance Bulletin, 21, 153-159.
15. Nazarov, N. (2023). The engagement between islamic and conventional banking. Prioritetnye napravleniya, sovremennye tendentsii i perspektivy razvitiya finansovogo rynka, 371-374.
16. U.Yu.O'roqov, Sh.B.Abdulazizov., B.R.Amiqulov. Ta'lim tizimini moliyalashtirish amaliyoti. “Science and education” Scientific Journal/ISSN2181 0842 Julay/volume 3 Issue 7
17. Jumaniyazov, I. T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 109.
18. Jumaniyozov, I. (2018). Impact of Development Finance Institutions on Economic Growth: Implications for Reconstruction and Development Fund of Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, 4(2), 84-88.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli “O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi”gi farmoni//Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020 y., 06/20/5992/0581-son.
20. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – M.: KnoRus, 2008. – S. 251.
21. Semenova N.N., Ivanova I.A., Vasilkina A.A. Otsenka ustoychivosti razvitiya kommercheskogo banka na osnove metoda analiza iyerarxiy. Finans: teoriya i praktika/Finance: Theory and Practice. 2021;25(4):121-135. <https://doi.org/10.26794/2587-5671-2021-25-4-121-135>
22. Mian A., Rao K., Sufi A. Household Balance Sheets, Consumption, and the Economic Slump//Quarterly Journal of Economics. – 2013. – 128(4). – pp. 1687 - 1726. .
23. Lando D., Skodeberg T. Analyzing Rating Transitions and Rating Drift with Continuous Observations // Journal of Banking and Finance. – 2002. – Vol. 26 (2–3). – pp. 423–444.
24. Xodjanov , Iskandar, i Farrux Gafurov. 2021. «Опыт применения vnutrikostnogo osteosinteza pri razryvax svyazok distalnogo mejbervovogo sindesmoza». Obshchestvo i innovatsii 2 (4):123-26. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4-pp123-126>. The Development Of Small Business And Private Entrepreneurship.EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO).
25. S D Kholmurodovich, T D Shermonovna. The role and importance of digital technologies in the development of enterprises. The American Journal of Social Science and Education Innovations 4 (02), 15-19.
26. To'raqulov Botirturdiyev, S D Xolmuradovich. Umumiy ovqatlanish korxonasini faoliyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish va swot tahlili takomillashtirish.Ta'lim fidoyilari 25 (5), 149-156.

27. To'raqulov Botirturdiboy, S D Xolmuradovich. Umumiy ovqatlanish korxonalari faolyatini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Ta'lim fidoyilari 25 (5), 157-164.
28. D Suyunov, M Maxsudov. The role of energy in the economic development of uzbekistan. Science and innovation 1 (A4), 145-149.
29. D X Suyunov, BR Tursunov. Aksiyadorlik jamiyatlarda korporativ boshqaruv samaradiligini oshirish. Central Asian Academic Journal of Scientific Research 2 (2), 48-55.
- 30 D.X Suyunov. Implementation of modern international standards and methods corporate governance. International Finance and Accounting 2021 (3), 33.
31. Suyunov D.X., Xolbaev B.A. Loyiha boshqaruvi: uslub va standartlar. O'quv qo'llanma. 2018 yil. 195
32. Suyunov D.X., Xolbaev B.A. Методы и стандарты управления проектами. учебное. 2018 год. 210 стр. D.X. Suyunov, E.A. Xoshimov, Sh.A. Xusainov. Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. "Korporativ boshqaruv: muammolar va zamonaviy yechimlar. 2018 yil. 220 bet.
33. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. Korporativ boshqaruv. Darslik – Toshkent: 2022 yil. 450 bet.
34. D X Suyunov. Ways to introduce a modern control system for the development of joint stock companies. International Finance and Accounting 2020 (3), 33.
35. D X Suyunov. O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.
36. A Davletyarov, D Suyunov, A Kenzhabaev. Foreign experience in the development of small business and private entrepreneurship in the field of service. Global Scientific Review 14, 5-11.
37. S D Kholmuradovich, K T Uzokovich. Ways for a leader to work on speech and improve speaking skills. American Journal of Pedagogical and Educational Research 11, 29-32.
38. D X Suyunov, V R Kaytavov. Current issues of digitization of transformational processes in commercial banks. American Journal of Business Management, Economics and Banking 10, 38-45.
39. D X Suyunov. Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ nazorat tizimini joriy etishni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari. Boshqaruv Va Etika Qoidalari Onlayn Ilmiy Jurnal 3 (2), 433-44
40. D X Suyunov, M I Maxsudov. Benefits of digitalization of the economy in uzbekistan. Ekonomika i sotsium, 748-751.
41. D X Suyunov. O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486.
42. (Qonun. O'RQ-370-son) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi 2014-yil 6 maydagi 370 son qonuni

43. (Qonun, O'RQ-387-son) O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi o'zbekiston respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" gi 2015-yil 3-iyundagi qonuni.

44. (Farmon, PF-60-son) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 yildagi 60-son farmoni.

45. Elmirzaev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv: Darslik / -T.: "Iqtisod moliya", 2019. – 416 b.

46. Elmirzaev S. Dividend siyosatining tashkiliy xususiyatlari va takomillashtirish masalalari. "Xalqaro moliya va hisob" elektron jurnali. № 2, oktyabr, 2016-yil.